



# MAKTAB O`QUVCHILARI ORASIDA KASB TANLASHDAGI MUAMMOLAR

**Ochilova Ozoda Ashurovna**

*Qorako`l tuman 30-umumta`lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada kasb psixologiyasi hamda psixologlarning maktab o`quvchilari kasb-hunar tanlash jarayonidagi ahamiyati, o`rni hamda metodologik jihatlari muhokama etiladi.*

**Kalit so`zlar:** *kasb-hunar, psixologiya, kadrlar tayyorlash, kasbiy psixologiya, ta`lim jarayonlari va kasb psixologiyasi.*

## **KIRISH**

Hozirgi kunda O`zbekistonda yoshlarning kasbhunar egasi bo`lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Yoshlar bu jamiyatning kelajagi, ularni o`zlari qiziqqan kasblarni egallashi, hayotda o`z o`rinlarini topa olishlari zaruriy jarayon hisoblanadi.

Kasbhunarli bo`lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o`z asarlarida aytib o`tganlar. Misol uchun, Kaykovus o`zining «Qobusnoma» asarida shunday yozadi: «Bas, agar aqling bo`lsa hunar o`rgang`il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo`lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo`lur va hech kishiga naf` yetkurmas»<sup>1</sup>.



## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Hozirda o`sib kelayotgan yoshlar o`z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o`zlari uchun qiziqarli bo`lgan kasbni tanlab olishlari va o`z hayotlarini mazmunli, yaxshi o`tkazish uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o`rni va ahamiyati judakatta.

Izlanuvchi yoshlar kasbhunar va uni egallash hayotlari, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib, kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo`lgan, jamiyatdagi huquqiy me`yorlarga javob beradigan, insonning kelajagini belgilab beradigan o`ziga xos murakkab jarayon, deb belgilashimiz mumkin. Kasb – bu insonning ma`lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o`zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo`lishidir. Kasbga xos bo`lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog`liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o`rganish orqali yoshlarni o`zlari qiziqqan kasbga yo`nalish beruvchi fan hisoblanadi.

Har bir kasbning o`ziga xos tomonlari, insonlarni o`ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo`lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib, shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o`zining ruhiyati bilan shu kasbga xos bo`lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

<sup>1</sup> Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Istiqlob», 1994 y. –26b.



*1-расм. Касб танлаш кетма-кетлиги<sup>2</sup>*

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining «Kasb qanday tanlanadi» kitobida 1-rasmdagi kabi ko‘rsatib berdi.

**Bu rasmdan ko‘rinib turibdiki, yoshlar kasb tanlashlarida ma‘lum bir bosqichlarni bosib o‘tadilar. Xilmaxil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga undaydi. Anvar Jalolov insonda kasb tanlash jarayonini 2-rasmdagidek belgilaydi.**

Insonda ma‘lum kasb, uni egallashga havas, mayl, orzu, ishtiyoq, hafsala bo‘lmasa, u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o‘z kelajagini to‘g‘ri anglash, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo‘ladi. Bular bolada ma‘lum bir maqsadning shakllanishi va bu yo‘lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o‘z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolada paydo bo‘luvchi havas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so‘zlarni tinglash va ularning mahoratiga qoyil qolish, bu insonlarning bilimdonligi, qo‘llaridan ko‘plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonlarga o‘xshashga havasni uyg‘otadi.

<sup>2</sup> Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. – T.: «Yangi asr av- lodi», 2010. –9b.



Yoshlarni kasb tanlashlari yo‘lidagi bunday jarayonlarni o‘rgangan psixolog olim inson ning anglash darajasiga ko‘ra kasb tanlashdagihislariga quyidagicha ta’rif bergan<sup>3</sup>.

*2-rasm. Kasb tanlash jarayoni*

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Kasb va kasbiy psixologiya o‘zining tadqiqotsohasi bilan eng muhim amaliy ishni hayotga tatbiq etib boradi. Kasb psixologiyasi inson va kasb o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish orqali insonni kasbga tayyorlaydi, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini o‘rganish orqali unga ma’lum bir kasblar haqida bilimlar va o‘ziga qiziq tuyulgan kasbni egallashga yo‘l yo‘riqlar berib boradi. Bu kabi ko‘plab misollar, ya’ni insonni kasbga o‘rgatish, kasbga xos bo‘lgan xulqatvorlarni singdirishinsoniyat tarixida ko‘plab uchraydi. O‘sib kelayotgan yosh avlod, uning kasbni egallashi masalalari katta avlodni har doim qiziqtirib kelgan va hozirda ham bu masala dolzarb masalalar qatorida turadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Istiqlol», 1994. –26b.
2. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. – T., 2010. –62b.
3. Хаитбаева, Н. Х. (2021). Формирование развития межнациональных культурных взаимоотношений в переводах. *Science and Education*, 2(5), 962-966.
4. Хаитбаева, Н. (2021). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ КУЛЬТУРНЫХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В ПЕРЕВОДАХ. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
5. Хаитбаева, Н. Х., & Турсунова, И. М. (2021). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ. In *ИНТЕГРАЦИЯ НАУКИ, ОБЩЕСТВА, ПРОИЗВОДСТВА И ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 70-75).
6. Khaitbaeva, N. K. (2022, March). LITERARY TRANSLATION IS AN INTEGRAL PART OF UZBEK CULTURE AND FINE LITERATURE. In *Conference Zone* (pp. 115-118).
7. Цой, А. П. (2009). Механизмы языковой игры в пьесах ЛС Петрушевской: Автореф. дисс. канд. филол. наук.
8. Цой, А. П. (2017). Прецедентный феномен как объект оценки в аксиологических механизмах языковой игры в пьесах ЛС Петрушевской. *Филология и лингвистика*, (2), 66-70.
9. Цой, А. П., & Сидорченко, К. М. (2016). О механизмах языковой игры в конструировании газетных заглавий. *International scientific journal*, 31.

<sup>3</sup> Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. – T., «Yangi asr av- lodi», 2010. –18b.



10. Шарипов, Ш. П. (2023). КОМБИНАЦИЯЛАШГАН МАШИНА ТЕКИСЛАГИЧИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН КОНСТРУКЦИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ. *Scientific progress*, 4(2), 80-84.

11. Nazarov, A., Sharipov, S., Yusupov, R., Mustapaqulov, S., & Jamanqulov, X. (2020). Methods for conducting a course project on machine parts. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(06), 2020.

12. Avezboyev, S., Sharipov, S., & Xujakeldiev, K. (2023, February). Development of projects for recultivation of lands using GIS technologies. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1138, No. 1, p. 012019). IOP Publishing.

13. Avezboyev, S., Sharipov, S., & Xujakeldiev, K. (2023, February). Development of projects for recultivation of lands using GIS technologies. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1138, No. 1, p. 012019). IOP Publishing.

14. Shermatov, A. A., ugli Yuldashov, S. A., & Kholmatova, Y. N. (2022). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE LAKOMA-T PREPARATION FOR THE PROPHYLAXIS OF OPHTHALMOGYPERTENSION IN THE PERIOD AFTER ULTRASOUND PHACOEMULSIFICATION (FEC) CATARACT OPERATION IN UNCOMPLICATED CATARACTS. *Oriental Journal of Medicine and Pharmacology*, 2(05), 1-9.

15. Mamatkulov, B. M., Umurzakova, D. A., & Rahmatullayeva, M. K. (2023). Some Aspects of the Development of Osteochondrosis of the Spine. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 2(4), 15-20.

16. Уразалиева, И., Маматкулов, Б., Тураев, Б., & Рахматуллаева, М. (2022). ДУНЁДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАКАМЛАШТИРИШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙУНАЛИШЛАРИ.

17. Косимхонова, М. К., & Авезова, Г. С. (2018). ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ СЕСТРИНСКОГО ДЕЛА В МЕДИЦИНСКИХ КОЛЛЕДЖАХ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 113-114).

18. Касимова, Д. А., & Нематов, А. А. (2019). ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИММУНОПРОФИЛАКТИКИ НА ПРИМЕРЕ ГРИППА. *Интернаука*, 15(97 часть 1), 38.

19. Mamatkulov, B. M., Nematov, A. A., & Vakhora, V. U. (2022). The Role of Social-Hygienic and Medical-Biological Factors in the Spread of Coronavirus Infection (SARS-CoV-2) Among the Population. *American Journal of Medicine and Medical Sciences*, 12(9), 943-947.

20. Толипова, Г. К., & Маматмусаева, Ф. Ш. (2022). ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ А ЎТКАЗГАН РЕКОНВАЛЕСЦЕНТ БОЛАЛАРДА РЕКОНВАЛЕСЦЕНЦИЯ МУДДАТЛАРИГА БОҒЛИҚ РАВИШДА КЛИНИК БЕЛГИЛАРНИНГ ЎЗГАРИШИ (Doctoral dissertation).